



BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TARBIVAVIY FAOLIYAT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Orziqulov Xusnidin To'liqin o'g'li,

Qo'qon universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti v.b, p.f.b.f.d.(PhD).

E-mail: xusnidinorziqulov@mail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 27

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1458>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

kompetentlik, tarbiyaviy faoliyat, pedagogik mexanizm, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion yondashuv, insonparvarlik, kadrlar, o'qituvchi madaniyati, tarbiya, rivojlanish, innovatsiya, tizim, maqsad, faoliyat.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samarali mexanizmlari, pedagogik shart-sharoitlar hamda innovatsion metodlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida tarbiyaviy kompetentlikni shakllantirish modelini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish masalasi o'qituvchining mehnat faoliyatida malga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar samarasi va uning o'ziga xosligi, olimlarning bu boradagi fikr mulohazalari atroflicha bayon etilgan. Mazkur mavzu bugungi kunda ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, u pedagogiklarni har tomonlama yetuk va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va samarali mexanizmlarini aniqlash, yosh o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini singdirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, shuningdek, pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali metod va texnologiyalarni aniqlash, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni va tamoyillari, bu ishlarni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar, ma'naviy-psixologik shart-sharoitlarni yaratish va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilar nafaqat o'quv fanlarini o'rgatuvchi, balki ma'naviy yetuk, ma'rifati va tarbiyaviy jihatdan bilimdon shaxs sifatida shakllanishi zarur, mavzu doirasida o'qituvchilarning sinfdan tashqari va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdagi pedagogik mahorati, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlash usullari, shuningdek, madaniyat va san'at imkoniyatlaridan tarbiya jarayonida foydalanish kabi masalalar tahlil etiladi.

Kirish. Hozirgi globalashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga nafaqat bilim berish, balki har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasi qo'yilmoqda. Shu bois bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligi, ularning kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy maktab o'qituvchisi nafaqat fan mutaxassisi, balki ma'naviy yetakchi, psixolog va ijtimoiy faol shaxs bo'lishi lozim. Ammo oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy ishlarni tashkil etish kompetentligini shakllantirish jarayonida tizimlilik va amaliy yo'naltirilganlik yetarli darajada emasligi muammoni dolzarb etadi. Ta'lim - ta'lim tizimida amalga oshiriladigan, o'quvchilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan rivojlanishi va ma'naviy-qiyimatli yo'nalishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning hayotiy o'z taqdirini o'zi belgilashi, axloqiy, fuqarolik va kasbiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlar ma'naviyat, odob-axloq, axloq muammolarini ayniqsa dolzarb qilib qo'yimoqda. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish va tarbiyalash dasturi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini sinf, maktabdan tashqari tadbirlarning birligidagi ta'lim muassasasi, oila va jamiyatning boshqa institutlarining birgalikdagi pedagogik ishlarida ta'minlashga qaratilgan bo'lishi bejiz emas. Bunday vazifalarni albatta o'qituvchilar amalga oshirishi talab etiladi sababi o'quvchilar bilan ishlash ularni manaviy axloqiy qilib jamiyatga tayyorlash vazifasi maktab o'qituvchilarning ang sharafligi kasbining asosiy vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo kasbiy tayyorgarlikning kompetensiyaviy modeli, shaxs rivojlanishi nazariyasi hamda faoliyat yondashuvi doirasida keng o'rganilgan.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari dastlab lingvistik nazariyada ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, Noam Chomsky tomonidan til egasining ichki bilim tizimi sifatida talqin etilgan. Keyinchalik mazkur tushuncha pedagogika va psixologiya faniga

ko'chib, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi integrativ sifat sifatida izohlandi. Kompetentlikning ijtimoiy va shaxsiy jihatlarini o'rganishda John Raven muhim ilmiy natijalarga erishgan bo'lib, u kompetentlikni muvaffaqiyatli faoliyatni ta'minlovchi motivatsion, kognitiv va xulq-atvor komponentlari birligi sifatida asoslab bergan.

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni tizimli ravishda ishlab chiqqan olimlardan biri Andrey V. Khutorskoy hisoblanadi¹. U ta'lim natijalarini "tayanch kompetensiyalar" tizimi orqali ifodalash g'oyasini ilgari surgan. Irina A. Zimnyaya esa kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma va qadriyatlar integratsiyasiga asoslangan kasbiy sifati sifatida tavsiflab, uning tuzilmasini aniqlashgan².

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari Carl Rogers tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'lim jarayonida talabaning ichki imkoniyatlarini ro'yogga chiqarish, o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiya muhim omil sifatida ko'riladi. Insonparvar pedagogika g'oyalari pedagogik faoliyatning tarbiyaviy komponentini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv doirasida shaxs rivojlanishi faoliyat jarayonida amalga oshishi ilmiy asoslab berilgan. Alexei N. Leontiev faoliyat nazariyasida shaxsning ong va motivatsiyasi faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. Lev S. Vygotsky esa ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasida ta'lim va tarbiya jarayonining ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligini asoslagan. Mazkur g'oyalari bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, pedagogik vaziyatlarni modellash va refleksiv tahlilning muhimligini ko'rsatadi³.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan tarbiyaviy kompetentlik murakkab, ko'p komponentli tuzilma sifatida qaraladi. Umumiy tizimlar nazariyasi asoschisi Ludwig von Bertalanffy har qanday jarayonni o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida o'rganish zarurligini ta'kidlagan. Shu asosda pedagogik tadqiqotlarda kompetentlikning motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlari ajratib ko'rsatiladi.

So'nggi yillarda tarbiyaviy faoliyatning ijtimoiy-emotsional jihatlarini, pedagogning kommunikativ madaniyati va ma'naviy

¹ Khutorskoy, A. V. (2003). Key competencies as a component of personality-oriented education paradigm. *Public Education*, 2, 58-64

² Zimnyaya, I. A. (2004). Key competencies - A new paradigm of education results. *Higher Education Today*, 5, 34-42.

³ Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.

yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyaviy ishlar samaradorligi o'qituvchining shaxsiy qadriyatlarini, empatiya darajasi va refleksiv ko'nikmalariga bevosita bog'liqdir.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning aynan tarbiyaviy faoliyat kompetentligini kompleks rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi kuzatiladi. Aksariyat ishlarda kompetentlik umumiy kasbiy tayyorgarlik doirasida ko'rib chiqilib, tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada ochib berilmagan. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada oshiradi hamda tarbiyaviy kompetentlikni rivojlantirishning integrativ modelini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Metodologiya. Bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatkompetentligini rivojlantirish masalasi O'zbekiston ta'lim fanida so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. O'zbekistonlik olimlar pedagoglarning kompetentlik yondashuvi va uning tarkibiy komponentlarini tadqiq etishda amaliy va nazariy asoslarni yaratganlar.

M.A.Olamova (2025) tadqiqotida bo'lajak tarbiyachilarning raqamli kompetentsiyasini shakllantirishdagi ta'lim loyihalashning roli va samaradorligi o'rganilgan. Muallif kompetentlikni amaliy vazifalar orqali namoyon bo'ladigan ko'nikmalar majmuasi deb ta'riflab, metodik yondashuv sifatida integratsiyalashgan faoliyat vazifalarini qo'llashni taklif etadi⁴ (Olamova, 2025).

N.Meyliyeva (2024) o'z ishida bo'lajak pedagoglarda refleksiya va o'z-o'zini baholash kompetentligini shakllantirishga e'tibor qaratadi. Tadqiqot metodologiyasida muallif diagnostik metodlar (so'rovnoma, test), hamda pedagogik vaziyatlarni modellashirish asosida kompetentlik darajasini baholash tizimini qo'llagan. Bu metodika tarbiyaviy faoliyatni talabalarning amaliy faoliyati orqali o'lgashga xizmat qiladi⁵ (Meyliyeva, 2024).

M.T.Zoxidova (2025) maqolasida funksional yondashuv prinsipiga asoslangan metodologik model taklif etilgan. Unda bo'lajak pedagoglarning kompetensiyalarini shakllantirishda maqsadli faoliyatlar, refleksiv guruh muhokamalari va amaliy mashg'ulotlar birgalikda ishlatilgan. Bu yondashuv maqsadga yo'naltirilgan metodik vositalarni belgilash orqali tarbiyaviy kompetentlikni tizimli rivojlantirishni ta'minlaydi⁶ (Zoxidova, 2025).

Daraja	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Yuqori	18 %	20 %
O'rta	46 %	44 %
Past	36 %	36 %

Ushbu natijalar bo'lajak pedagoglarda tarbiyaviy kompetentlikning asosan o'rta va past darajada ekanligini ko'rsatdi.

2. *Shakllantiruvchi bosqich natijalari*

Tajriba guruhida quyidagi pedagogik shart-sharoitlar joriy etildi:

- Tarbiyaviy vaziyatlarni modellashirish;
- Loyihaviy faoliyat asosida tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqish;
- Refleksiv muhokamalar va o'z-o'zini baholash metodlari;

Daraja	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Yuqori	42 %	23 %
O'rta	48 %	47 %
Past	10 %	30 %

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida yuqori daraja 24 foizga oshgan, past daraja esa 26 foizga kamaygan. Nazorat guruhida esa sezilarli o'zgarish kuzatilmadi.

4. *Natijalar tahlili*

Olingan ma'lumotlar tahlili quyidagilarni ko'rsatdi:

- Motivatsion komponent sezilarli darajada mustahkamlandi;
- Talabalarning tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash ko'nikmalari rivojlandi;
- Refleksiv tahlil qilish malakalari shakllandi;

S. Ibodova (2024) pedagogkadrnlarni tayyorlashda diagnostik va baholash metodlarini muhim element sifatida keltiradi. Muallif bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy kompetentlik bo'yicha baholash uchun indikatorlar tizimi ishlab chiqqan bo'lib, u orqali pedagogik kompetentlikning motivatsion, kognitiv va amaliy komponentlari aniqlanadi⁷ (Ibodova, 2024).

Ushbu tadqiqotlarda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. *Nazariy-konseptual tahlil:* milliy ta'lim standartlari, kompetensiyaviy yondashuv va tarbiyaviy faoliyat kontseptsiyalarini o'rganish.

2. *Empirik diagnostika metodlari:* so'rovnomalalar, testlar, kompetentlik indikatorlarini baholash vositalari.

3. *Amaliy pedagogik vaziyatlar va modellashirish:* real yoki simulyatsiya qilingan vaziyatlar orqali bo'lajak pedagogning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini aniqlash va takomillashtirish.

Shu tariqa, O'zbekiston olimlari metodologik jihatdan tarbiyaviy kompetentlikni integrativ, situativ va baholash-yo'naltirilgan tarzda rivojlantirishni taklif qiladilar. Bu metodik yondashuvlar tadqiqotning amaliy qismida qo'llanib, bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati bo'yicha kompetentlik darajasini obektiv baholash imkonini beradi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: diagnostik (boshlang'ich), shakllantiruvchi (tajriba) va nazorat (yakuniy) bosqichlar.

1. *Boshlang'ich diagnostika natijalari*

Dastlabki bosqichda respondent-talabalarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligining mavjud darajasi aniqlashtirildi. Diagnostika mezonlari quyidagi komponentlar asosida belgilandi:

- Motivatsion komponent
- Kognitiv komponent
- Faoliyat (amaliy) komponenti
- Refleksiv komponent

Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyatida tarbiyaviy faoliyatga ijobiy munosabat mavjud bo'lsa-da, amaliy ko'nikmalar va refleksiv tahlil qilish malakalari yetarli darajada shakllanmagan.

Boshlang'ich ko'rsatkichlar (foiz hisobida):

- Interfaol metodlar (munozara, keys-stadi, rol o'ynash).

Mazkur metodlar asosida talabalar tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va baholash ko'nikmalarini amaliy ravishda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

3. *Yakuniy nazorat natijalari*

Tajriba yakunida qayta diagnostika o'tkazildi. Natijalar quyidagicha bo'ldi:

- Pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati oshdi.

Matematik-statistik tahlil natijalari tajriba guruhidagi o'zgarishlarning ishonchligini tasdiqladi.

Tahliliy xulosa

Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan pedagogik model va metodik ta'minot bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini samarali rivojlantirishga xizmat

⁴ Olamova, M. U. (2025). *Bo'lajak tarbiyachilarning raqamli kompetentsiyasini shakllantirishda pedagogik loyihalashning roli*. International Journal of Science and Technology, **2**(3), 170–176. <https://doi.org/10.70728/tech.v2.i03.026>

⁵ Meyliyeva, N. (2024). *Bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini baholash kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish*. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17591684>

⁶ Zoxidova, M. T. (2025). *Bo'lajak pedagoglarning funksional yondashuv asosida pedagogik mahoratini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari*. International Journal of Science and Technology, **2**(2), 71–76. <https://doi.org/10.70728/wghacc28>

⁷ Ibodova, S. (2024). *Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari*. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17291072>

qiladi. Kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlar integratsiyasi ijobiy natija berdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini rivojlantirish jarayoni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan metodik ta'sir orqali samarali amalga oshirilishini ko'rsatdi⁸. Tajriba-sinov ishlari qo'llanilgan kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan hamda refleksiv yondashuvlar integratsiyasi talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qildi.

Olingan natijalar pedagogik kompetentlikni shakllantirishga doir ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, Nishonali Saidahmedov pedagogik jarayon samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahorati va tarbiyaviy faoliyatni tashkil eta olish qobiliyatiga bog'liqligini ta'kidlagan. Tadqiqotimiz natijalari ham tarbiyaviy faoliyat kompetentligining motivatsion va amaliy komponentlari rivojlanganda pedagogning umumiy kasbiy tayyorgarligi yuksalishini ko'rsatdi.

Shuningdek, Utkir Tolipov tomonidan ilgari surilgan kasbiy kompetentlikning tizimli modeli bilan ham muayyan o'xshashlik kuzatildi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, tarbiyaviy kompetentlik alohida komponent sifatida rivojlantirilgan pedagogning kommunikativ va refleksiv ko'nikmalari ham mustahkamlanadi. Bu esa kompetentlikning integrativ xususiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, faqat nazariy bilim berish tarbiyaviy kompetentlikni shakllantirish uchun yetarli emas. Pedagogik vaziyatlarni modellash, keys-stadi, loyihaviy faoliyat va refleksiv tahlil metodlari talabalarning real kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirdi. Bu holat faoliyatga yo'naltirilgan ta'limning ustuvorligini ko'rsatadi.

Natijalar tahlili jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: talabalarning tarbiyaviy faoliyatga nisbatan motivatsiyasi yuqori bo'lsada, amaliy rejalashtirish va baholash ko'nikmalari dastlab yetarli darajada shakllanmagan edi. Shakllantiruvchi bosqichda amaliy mashg'ulotlar ulushining oshirilishi bu kamchilikni bartaraf etishga yordam berdi⁹.

Biroq tadqiqot doirasida ayrim cheklovlar ham mavjud. Xususan, tajriba ma'lum bir oliy ta'lim muassasasi talabalari ishtirokida o'tkazilgan bo'lib, natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Kelgusida tadqiqotni kengroq auditoriyada, turli hududiy va ixtisoslik yo'nalishlarida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan pedagogik modelning samaradorligini tasdiqladi hamda bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ustunligini ko'rsatdi. Mazkur natijalar oliy pedagogik ta'lim tizimida tarbiyaviy faoliyatni metodik jihatdan takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Khutorskoy, A. V. (2003). Key competencies as a component of personality-oriented education paradigm. *Public Education*, 2, 58–64
2. Zimnyaya, I. A. (2004). Key competencies – A new paradigm of education results. *Higher Education Today*, 5, 34–42.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
4. Olamova, M. U. (2025). *Bo'lajak tarbiyachilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirishda pedagogik loyihalashning roli*. *International Journal of Science and Technology*, 2(3), 170–176. <https://doi.org/10.70728/tech.v2.i03.026>
5. Meyliyeva, N. (2024). *Bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini baholash kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish*. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17591684>
6. Zoxidova, M. T. (2025). *Bo'lajak pedagoglarning funksional*

aniqlashga qaratildi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida tarbiyaviy faoliyat kompetentligi pedagogning kasbiy tayyorgarligi tarkibida muhim integrativ komponent sifatida namoyon bo'lishi asoslandi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida ustuvor metodologik asos hisoblanadi hamda tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish pedagogning motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlari uyg'unligiga bog'liqdir. O'zbekistonlik olimlar tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar ham o'qituvchining tarbiyaviy mahoratini kasbiy kompetentligining ajralmas qismi sifatida talqin etadi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan pedagogik model va metodik ta'minotning samaradorligini tasdiqladi. Xususan:

- talabalarning tarbiyaviy faoliyatga nisbatan kasbiy motivatsiyasi oshdi;
- tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash va tashkil etish ko'nikmalari rivojlandi;
- pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish malakalari shakllandi;
- refleksiv tahlil qilish qobiliyati mustahkamlandi.

Shuningdek, faoliyatga yo'naltirilgan metodlar, pedagogik vaziyatlarni modellash, loyihaviy ishlar va refleksiv muhokamalar bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Bo'lajak pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo'ladigan barcha harakatlar, predmetlar, qurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin. Har bir insonning jamiyat hayotida ongli ravishda mustaqil ishtirok etishi, tarbiyaviy ishlar bo'yicha ma'naviy sohada yuzaga keladigan muammolarni yetarli darajada hal etishga qaratilgan harakati tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligida namoyon bo'ladi. Mazkur harakatni ma'naviy qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar asosida tashkillashtirish – bugungi va kelajak hayotimizni ma'naviy-axloqiy inqirozlardan saqlashning har tomonlama kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatga oid maxsus modullarni joriy etish;
- pedagogik amaliyot jarayonida tarbiyaviy vazifalarni tizimli ravishda rejalashtirish;
- talabalarning refleksiv faoliyatini rag'batlantiruvchi baholash mexanizmlarini qo'llash;
- tarbiyaviy kompetentlikni baholash mezonlari va indikatorlarini amaliyotga tatbiq etish.

Umuman olganda, bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifati va jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

yondashuv asosida pedagogik mahoratini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari. *International Journal of Science and Technology*, 2(2), 71–76. <https://doi.org/10.70728/wghacc28>

7. Ibodova, S. (2024). *Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari*. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17291072>

8. Mavlonova R., Vohidova N.X., Rahmonqulova N.H. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma)* –T.Fan va texnologiyalar: 2010 y.

9. Orziqulov, X. (2025). *Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik shart sharoitlari*. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 14, 109–111.

⁸ Mavlonova R., Vohidova N.X., Rahmonqulova N.H. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma)* –T.Fan va texnologiyalar: 2010 y.

⁹ Orziqulov, X. (2025). *BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING TARBIYAVIY FAOLIYATGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING*

PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 14, 109–111.